

Ilmga intilib

Bugun 20-aprel kuni "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetiga Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani 1-IDUM bitiruvchi sinf o'quvchilari mas'ul o'qituvchilari bilan birgalikda tashrif buyurishdi. Tashrifdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilarni Universitetimiz faxri hisoblangan Abdulla Oripov muzeyi bilan tanishtirish edi. O'quvchi-yoshlarni "Gidromelioratsiya" fakulteti tyutorlari va iqtidorli talabalari kutib olib, universitetimiz o'quv binolari, laboratoriya binolari hamda Abdulla Oripov muzeyi bilan tanishtirib chiqishdi.



Fakultetimiz tyutorlari Akbarov O'tkir va Yakubov Kamoliddin o'quvchilarga universitetimiz asosiy va o'quv binolari, laboratoriya binolari haqida ma'lumotlar berishgan bo'lsa, faol talabalardan Abdulla Oripov nomidagi stipendiya sohibasi Karimova Shodiya, Normurodova Zuhra o'quvchilarga muzey faoliyati haqida ma'lumotlarni berishdi. Adibimiz hayotida qadrlil bo'lgan, ijod faoliyatida foydalangan har bir buyum bilan tanishib chiqqan o'quvchilar o'zlari qiziqqan savollarga batafsil javoblarni olishdi. Bunday madaniy-ma'rifiy targ'ibot ishlari yanada ko'payishi va o'quvchilardagi oliygohlarga bo'lgan qiziqishlarni orttirib borish juda zarur.



Universitet matbuot xizmati